

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIDA “BOLA”
VA “VOYAGA YETMAGAN SHAXS” KATEGORIYALARINING
QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Babaxanov Hamdam Qadamovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida o‘qituvchisi, mayor*

Gadoymiradov Bekzod Obidjon o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida o‘qituvchisi, kapitan*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.06.2026

Revised: 24.06.2026

Accepted: 25.06.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*bola, voyaga
yetmagan shaxs, yuridik
germenevtika, bolaning
javobgarligi,
terminologik
gibridlashuv va delikt
qobiliyatiga ega voyaga
yetmagan shaxs.*

*Mazkur maqolada “bola” va “voyaga
yetmagan shaxs” tushunchalarining huquqiy
tabiati O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat
kodeksi hamda Ma‘muriy javobgarlik
to‘g‘risidagi kodeksi normalari misolida qiyosiy-
huquqiy va xalqaro tajriba kontekstida tahlil
qilinadi. Mualliflar ushbu atamalarni sinonim
sifatida qo‘llash ilmiy-nazariy hamda huquqni
qo‘llash amaliyoti nuqtai nazaridan asossiz
ekanini asoslab beradilar va qonun
chiqaruvchining mazkur kategoriyalarni
farqlashdagi terminologik yondashuvi hamda
uning huquqiy-amaliy ahamiyatini ochib
berishadi.*

Bugungi kunda huquqiy atamalarni to‘g‘ri qo‘llash faqat lingvistik masala bo‘lib qolmay, balki shaxsning huquqiy maqomini belgilaydigan va uning taqdiriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan muhim yuridik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababdan, “bola” va “voyaga yetmagan” tushunchalarini bir-biriga tenglashtirish yoki ularni sinonim sifatida qo‘llash masalasi nazariy jihatdan ham, huquqni qo‘llash amaliyoti nuqtai nazaridan ham jiddiy ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Ayrim zamonaviy tadqiqotlarda “voyaga yetmagan” atamasini qo‘llashdan voz kechib, uning o‘rniga faqat “bola” tushunchasini qo‘llash taklif etilmoqda. Biroq jinoyat huquqi nazariyasi va ma‘muriy huquq nazariyasi asosida, ilmiy qarashlar (doktrina) orqali tahlil

qilish nuqtai nazaridan bunday yondashuv asosli emas. Zero, **“bolaning javobgarligi”** degan ibora huquqiy mantiqqa va amaldagi qonun normalarining mazmuniga zid keladi. Bola tushunchasi avvalo ijtimoiy himoya, aybsizlik prezumpsiyasi va alohida muhofazaga muhtojlik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lsa, huquqiy javobgarlik faqat muayyan darajada huquqiy layoqat va delikt qobiliyatiga ega bo‘lgan **“voyaga yetmagan”**ga nisbatan qo‘llaniladi.

Huquq normalarining aniq va tushunarli bo‘lishi odil sudlovning asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish davlatning asosiy majburiyati sifatida mustahkamlandi[1]. Ushbu norma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son Farmoni bilan yanada rivojlantirilib, bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan **“bola”** va **“voyaga yetmagan shaxs”** kategoriyalarining maqsadli ravishda farqlanishi davlatning shaxsga nisbatan amalga oshiradigan ikki xil - himoya qiluvchi va tartibga soluvchi funksiyalarining mahsuli [2] ekanligi belgilangan.

Shu tariqa, mazkur maqolada yuqorida qayd etilgan normativ - huquqiy asoslarga tayangan holda, **“bola”** va **“voyaga yetmagan”** atamalarining huquqiy dixotomiyasi, shuningdek, ushbu tushunchalarni sinonim sifatida qo‘llash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan terminologik kolliziyalar va ularning huquqiy oqibatlari tadqiq etiladi.

- **Bola** — ijtimoiy himoya, vasiylik va kafolatlar sohasida ustuvor qo‘llaniladi.
- **Voyaga yetmagan shaxs** — huquqiy javobgarlik, nazorat va protsessual munosabatlarda ustuvor qo‘llaniladi.

“Bola” tushunchasi: O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi **“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”**gi O‘RQ-139-son Qonuni [3] va BMTning 1989-yil 20-noyabrdagi Konvensiyasi[4]ga muvofiq, bola — 18 yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan shaxsdir. Bu kategoriya inson huquqlari sohasidagi **“eng yuqori himoya”** obyektidir.

“Voyaga yetmagan” tushunchasi: Bu atama shaxsning huquqiy layoqati va javobgarligi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi **“Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”**gi O‘RQ-263-son Qonunning 3-moddasida ushbu atamaga ta‘rif berilgan [5] bo‘lsa-da, uning mazmuni jinoyat va ma‘muriy javobgarlik, huquqiy protseduralar va nazorat ob‘ektlari sohasida qo‘llaniladi.

Amaliyotda va ayrim ilmiy qo‘llanmalarda **“bola”** va **“voyaga yetmagan”** tushunchalarini aralashtirib yuborish holatlari uchraydi. Masalan, 16 yoshli shaxs bir vaqtning o‘zida ham bola (himoya obyekti), ham voyaga yetmagan (javobgarlik subyekti) hisoblanadi.

Mazkur masalaning huquqiy tabiatini ochib berishda professor M. Usmonaliyev va P. Bakunovning yondashuvi diqqatga sazovordir. Olimlarning ta‘kidlashicha, **«jinoyat subyekti yoshi bilan voyaga yetmaganlik yoshi tushunchalari har xil tushunchalardir»**.

=====

Bunda voyaga yetmaganlik - shaxsning saylovda qatnasha olmasligi yoki muayyan mansablarni egallay olmasligi kabi to'la muomala layoqatiga ega emasligini ifodalasa, jinoyat subyektini yoshi shaxsning o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglash va boshqarish qobiliyati bilan belgilanadi [6].⁶⁸

Qonunchilikda "bola" va "voyaga yetmagan shaxs" kategoriyalari o'rtasida terminologik nomuvofiqliklar yoki talqin qilishda ixtiloflar yuzaga kelgan hollarda quyidagi ilmiy-huquqiy mezonlarga tayanish lozim deb hisoblaymiz:

1. Qonunchilik texnikasi va izchillik tamoyili. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"[7]gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarda atamalar izchil va bir xil qo'llanilishi shart. Bunda huquqiy kolliziyalarni hal etishning klassik "**Lex specialis**" (Maxsus qonun ustuvorligi) qoidasi amal qiladi.

Agar umumiy normada "bola" atamasi ishlatilgan bo'lsa-da, lekin sohaviy (maxsus) qonunda "voyaga yetmagan shaxs" sifatida aniq ta'rif berilgan bo'lsa, javobgarlik masalasida aynan maxsus norma ustuvor hisoblanadi;

2. Yuridik germenevtika va funksional talqin. Germenevtik yondashuv terminni nafaqat lingvistik, balki uning funksional maqsadiga (*ratio legis*) ko'ra talqin qilishni taqozo etadi.

Misol uchun 17 yoshli shaxs guruh bo'lib talonchilik sodir etdi. Agar biz unga faqat «bola» (himoya obyekti) sifatida yondashsak, «bola manfaatlarini ustuvorligi» tamoyili avtomatik ravishda javobgarlikni ikkinchi planga surib qo'yishi va haddan tashqari yumshoq munosabat yoki jazosizlik hissini keltirib chiqarishi mumkin.

Aksincha, unga nisbatan «delikt qobiliyatiga ega voyaga yetmagan shaxs» kategoriyasini qo'llash, uning huquqlarini himoya qilish bilan birga, qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib yuridik baho berish imkonini beradi. Bu esa ijtimoiy adolat va jazo muqarrarligi tamoyillari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi."

Xorijiy davlatlarning huquqiy tizimi va xalqaro standartlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "bola" va "voyaga yetmagan shaxs" tushunchalarining funksional jihatdan farqlanishi huquqiy aniqlikning muhim garovidir.

Huquqiy terminlarni talqin qilishning xalqaro standarti hisoblangan 1969-yildagi "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"[8]gi Vena konvensiyasining 31-moddasiga ko'ra, har qanday termin kontekst hamda qonun chiqaruvchining maqsadidan (*object and purpose*) kelib chiqib ma'no kasb etishi lozim. Bu milliy qonunchiligimizdagi ushbu atamalarni sinonim emas, balki turli yuridik vazifalarni bajaruvchi vositalar deb qarashga ilmiy asos bo'ladi.

Jahon amaliyotida terminlarni shaxsning maqomi va javobgarlik darajasiga ko'ra tabaqalashtirish keng tarqalgan. Jumladan:

⁶⁸ Жиноят ҳуқуқи дарслик. <https://library-tsul.uz/zhinoyat-u-u-i-usmonaliev-m-bakunov-p-2010/>

- *Anglo-sakson huquq tizimi (AQSh, Buyuk Britaniya)*. Ijtimoiy ta'minot va oila huquqida – **“Child”** (bola) atamasi qo'llanilsa, jinoyat va ma'muriy javobgarlik sohasida – **“Juvenile”** yoki **“Minor”** (voyaga yetmagan) kategoriyalari ishlatiladi. Bu huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan maxsus protsessual nazorat o'rnatish imkonini beradi;

- *Germaniya davlatida* Shaxsning yoshi va psixologik yetilganligi qat'iy ajratilgan. Unga ko'ra 14 yoshgacha – **“Kinder”** (bolalar), 14 yoshdan 18 yoshgacha – **“Jugendliche”** (o'smirlar yoki voyaga yetmaganlar);

- *MDH davlatlarida (Rossiya, Belarus)* “bola” atamasi asosan oila huquqida status va muhofazani ifodalasa, “voyaga yetmagan” atamasi ularda ham jinoyat va ma'muriy huquqda mas'uliyat chegarasini belgilaydi;

- *Ukraina davlatining qonunchiligida* ichki tabaqalanish yanada aniqroq belgilangan. Unga ko'ra 14 yoshgacha **“kichik yoshdagi bola”**, 14-18 yoshgacha **“voyaga yetmagan shaxs”** deb ataladi.

BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi tomonidan O'zbekistonning davriy hisobotlari yuzasidan berilgan yakuniy tavsiyalarida (*xususan, 2022-yildagi CRC/C/UZB/CO/5-6-sonli hujjatda*) milliy qonunchilikdagi terminologiyani Konvensiyaning 1-moddasiga to'liq moslashtirish, ya'ni 18 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslarga nisbatan istisnosiz “bola” atamasini qo'llash masalasi muntazam ko'tarib kelinadi.

Biroq, xalqaro standartlarni ko'r-ko'rona ko'chirish milliy huquqiy tizimimizdagi “javobgarlik subyekti” va “himoya obyekti” o'rtasidagi nozik chegarani yo'qqa chiqarishi mumkin. Shu bois, “Milliy suverenitet va huquqiy an'ana” tamoyilidan kelib chiqib, milliy qonunchiligimizda “voyaga yetmagan shaxs” atamasini (*ayniqsa jinoyat va ma'muriy javobgarlik sohasida*) saqlab qolish strategik ahamiyatga ega.

Bu nafaqat huquqiy merosimizga sodiqlik, balki 16 - 18 yoshli shaxslarning yuridik maqomini aniq differentsiatsiya qilish orqali huquqiy tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bizning yondashuvimiz xalqaro prinsipni (*bola huquqlari*) inkor etmagan holda, uni milliy huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimi bilan konseptual uyg'unlashtirishdan iboratdir.

Qonunchilik matnida “bola” va “voyaga yetmagan shaxs” atamalarining navbatma-navbat qo'llanilishi tasodifiy holat emas, balki qonun chiqaruvchining muayyan huquqiy maqsadga yo'naltirilgan ongli terminologik siyosati natijasidir.

Ushbu holatni shartli ravishda sohaviy qonunchilikdagi **“terminologik gibridlashuv”** sifatida baholash mumkin. Bu atamani qo'llashda huquqshunoslikdagi ilmiy manbalar va yuristlar tomonidan ishlatiladigan “funktional termin qoidalari”ga tayanish asoslidir (*masalan, Leks spesialis, yuridik germenektika*).

Ushbu ikki atamaning turli moddalarda qo'llanilishi ular ifodalayotgan huquqiy mazmunning funksional farqlanishi bilan izohlanadi. Misol uchun:

- *Bola (himoyaga yo'naltirilgan status)*: Jinoyat kodeksining 122¹-moddasida “bolani nazoratsiz qoldirish” degan ifoda qo'llaniladi. Bu yerda shaxs avvalo ijtimoiy va biologik jihatdan ojiz obyekt sifatida qaraladi, huquqiy munosabatning faol ishtirokchisi emas.

- *Voyaga yetmagan shaxs (javobgarlikka yo‘naltirilgan rejim)*: Jinoyat kodeksining 127-moddasi yoki MJtKning 188-moddasida “voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy harakatlarga jalb qilish” degan ibora qo‘llaniladi. Bu shaxs muayyan huquqiy layoqat va javobgarlik qobiliyatiga ega subyekt sifatida qaraladi.

Demak, “bola” va “voyaga yetmagan” atamani parallel qo‘llanish huquqiy jihatdan tartibga solishning turli modellarini (*himoyaga asoslangan status va javobgarlikka asoslangan rejim*) farqlashga xizmat qiladi.

Quyidagi jadval orqali “bola” va “voyaga yetmagan shaxs” atamaları nafaqat leksik jihatdan, balki huquqiy maqom va davlatning ularga nisbatan amaliy munosabati jihatidan farqlanishi vizual ravishda ko‘rsatiladi.

Mezon	Bola (Child)	Voyaga yetmagan shaxs (Minor)
Huquqiy ma‘nosi	Inson huquqlari markazidagi kategoriya	Yuridik javobgarlik markazidagi kategoriya
Davlat funksiyasi	Kafolat va himoya (G‘amxo‘rlik)	Profilaktika va nazorat (Tarbiya)
Asosiy urg‘u	Ijtimoiy-biologik ojizlik	Yuridik-protsessual maqom
Mantiqiy formula	Bola — faqat himoya qilinadi	Voyaga yetmagan — javobgarlikka tortilishi mumkin

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 47-moddasida qo‘llanilgan “**voyaga yetmagan bola**” iborasi qonun chiqaruvchining huquqiy mantiqqa asoslangan terminologik yechimlaridan biri bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ikki xil huquqiy-ijtimoiy mazmuni o‘zida mujassamlashtiradi. Jumladan, “bola” atamasi ota-onaning tabiiy va ma‘naviy burchini ifodalasa, “voyaga yetmagan” atamasi mazkur burchning huquqiy chegarasini (18 yosh) aniqlashtiradi.

Biroq, yuridik texnika nuqtai nazaridan ushbu iborani tahlil qilganda, unda “**yuridik pleonazm**” (*ortiqcha so‘z qo‘llash*) alomatlarini kuzatish mumkin. Zero, milliy qonunchilikda “bola” va “voyaga yetmagan shaxs” kategoriyalarining yosh mezoni bir xil. Shu bois, kelgusida qonunchilikni yagona standartga keltirish (unifikatsiya) qilishda ushbu iborani sohaviy maqsaddan kelib chiqib, qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ayniqsa, MJtKning 247-moddasida nazarda tutilgan komissiyalarning “**Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar**” deb qayta nomlanishi davlat siyosatining jazolash modeldan gumanistik modelga o‘tganini anglatadi. Biroq ushbu komissiyalar ko‘rib chiqadigan ishlar subyekti hamon “**voyaga yetmagan shaxs**” sifatida qolmoqda.

Bu holat huquqiy dixotomiyani (huquqiy bo‘linishni) keltirib chiqaradi. organning nomi uning vazifasini (bolani asrash va himoya qilish), ish yuritish obyekti esa shaxsning huquqiy maqomini (voyaga yetmagan huquqbuzar) ifodalaydi.

Ushbu noaniqlikni bartaraf etish va huquqiy aniqlikni ta'minlash maqsadida, ayniqsa 16 yoshdan oshgan shaxslarga nisbatan ilmiy muomalaga **“Delikt qobiliyatiga ega voyaga yetmagan shaxs”** (*yoki ma'muriy javobgarlik kontekstida “delikt qobiliyatiga ega bola”*) tushunchasini kiritish taklif etiladi. Ya'niy **0 - 15 yosh** ustuvor ravishda “bola” (*mutlaq himoya va vasiylik obyekt*) sifatida shuningdek, **16-18 yoshgacha** “voyaga yetmagan shaxs” (*mas'uliyat yoshiga yetgan va javobgarlik subyekt*) sifatida talqin qilinishi lozim.

Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning qilmishiga berilgan yuridik bahoni sun'iy ravishda yumshatib yuborishning oldini oladi va jazo muqarrarligi tamoyilini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 17-moddasida “16 yosh” shaxsning jinoiy mas'uliyatga tortilishi uchun umumiy minimal yosh me'yori sifatida mustahkamlangan. Bu yosh mezonini shaxsning “bola” maqomidan “delikt qobiliyatiga ega yuridik subyekt” maqomiga o'tish chegarasidir.

Shuningdek, JKning 87-moddasida voyaga yetmagan shaxsni jazo qo'llamasdan ham tuzatish mumkin bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish **bolalar masalalari bo'yicha komissiyaga** o'tkazilishi belgilangan. Bu norma qonunchilikdagi huquqiy bo'linishning amaliy isbotidir.

Ya'ni shaxs huquqbuzarlik sodir etganda “voyaga yetmagan” deb topiladi, lekin uni tuzatish va himoya qilish uchun yana “bola” maqomiga qaytarilib, maxsus komissiyaga topshiriladi.

Ushbu 87-moddaning uchinchi qismidagi “rivojlanishda orqada qolgan voyaga yetmaganlar” haqidagi qoida, shaxsning yoshi 16 da bo'lsa-da, uning ruhiy holati “bola” darajasida ekanligini inobatga olish shartligini ko'rsatadi.

Sud amaliyotidan 16 yosh va undan katta shaxs uchun huquqbuzarlik sodir etilganda, ular jinoiy-huquqiy maqomda “voyaga yetmagan shaxs” sifatida ko'rib chiqiladi va qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari qo'llanadi.

Demak, “bola” va “voyaga yetmagan shaxs” atamasini yagona tizim sifatida birlashtirib ko'rsak, unda 0 - 15 yosh bola (himoya obyekt), 16 - 17 yosh voyaga yetmagan shaxs (javobgarlik subyekt) va 18 yosh va undan katta to'liq javobgar shaxs sifatida mavjud bo'ladi. Natijada qonunchilikda shaxs maqomi va javobgarlik darajasini aniqlaydi, shu bilan birga, terminologik subyektivlik va nizolarlarga chek qo'yadi.

Jinoyat kodeksidagi terminologik strategiya jihatdan qaralganda “bola” (*Child*) – ijtimoiy va biologik o'zlik, oilaviy-axloqiy munosabatlarni himoya qilish obyekt sifatida, **“voyaga yetmagan shaxs”** (*Minor yoki Juvenile*) – huquqiy tarbiya, profilaktika va javobgarlikka tayyorlash obekti hamda **16 yosh** (*Legal Age*) – huquqiy layoqat va javobgarlik

mezoni sifatida belgilanadi. Bu me'yor terminologik aniqlik va odil sudlov kafolati uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, **“bola”** va **“voyaga yetmagan shaxs”** tushunchalari **sinonim emas**, balki **funksional antipodlardir**. Ularni farqlash davlatning ijtimoiy siyosati (g'amxo'rlik) va jinoyat-huquqiy siyosati (mas'uliyat) o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning muhim kafolatidir.

Shu bilan birga, ushbu kategoriyalar orasidagi huquqiy chegarani aniq belgilash nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki muhim **korrupsiyaga qarshi omil** hamdir. Huquqiy normalardagi terminologik aniqlik va talqin qilishdagi qat'iy mezonlar suiiste'molchiliklarning oldini oladi, huquqni qo'llovchining ixtiyoriyligini (*diskresion vakolatini*) chegaralaydi va javobgarlik masalasidagi turli “so'z o'yinlari” hamda “savdolashish” imkonini yo'qqa chiqaradi.

Yuqorida keltirilgan fikirlardan kelib chiqqan holda, quyidagi **takliflarni** ilgari suramiz:

Qonunchilikka “Funksional Talqin” qoidasini kiritish zarur “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunning tegishli moddalarida yoki Oliy sud Plenumi tushuntirishlarida terminologik ixtiloflar yuzaga kelganda, normaning maqsadidan kelib chiqib (*himoya uchun bola, javobgarlik uchun voyaga yetmagan*) talqin qilish majburiyatini belgilash.

Differensial yondashuv: Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar tomonidan ishni ko'rib chiqishda shaxsning 16 yoshgacha (*bola sifatida himoya va rehabilitatsiyaga muhtoj obyekt*) va 16 yoshdan keyingi (*voyaga yetmagan shaxs sifatida sodir etgan qilmishi uchun huquqiy mas'uliyatni anglaydigan subyekt*) maqomini psixologik-pedagogik ekspertiza asosida tabaqalashtirish amaliyotini joriy etish.

Raqamli reestrlarda birxillik: Davlat organlarining idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi tizimida “bola” va “voyaga yetmagan shaxs” kategoriyalarini yuqoridagi mezonlar asosida ajratish, bu orqali statistik hisobotlardagi noaniqliklarni bartaraf etish.

Ushbu takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi odil sudlov samaradorligini oshirish bilan birga, bolalar huquqlarini himoya qilishning milliy tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda yanada aniqroq va adolatliroq bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF- 6275-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-139-son Qonuni
4. BMTning 1989-yil 20-noyabrdagi Konvensiyasi

-
5. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-263-son Qonun
6. professor M. Usmonaliyev va P. Bakunovning
7. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun
8. 1969-yildagi “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida”[8]gi Vena konvensiyasi
9. BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan O‘zbekistonning davriy hisobotlari yuzasidan berilgan yakuniy tavsiyalarida (xususan, 2022-yildagi CRC/C/UZB/CO/5-6-sonli hujjatda)
10. MJtK va JK.

